

MUQADDAS ISLOM DININING URF-ODATLARGA MUNOSABATI

Nazarova Gulsara Axadovna

“Jo’ybori Kalon” o’rta maxsus islom
ta’lim muassasasi o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13926347>

Annotatsiya. Har bir xalqning o’ziga xos urf-odat, an’ana va marosimlari bor. Ularning har biri boshqasidan tubdan farq qiladi. Biri foydali, biri mutlaqo zararli. Birida milliylik aks etsa, birida buzuqlikka targ‘ib va hokazolar bo‘lishi mumkinligi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Urf-odat, islom, “An’ana”, “odat”, “marosim”, Qur’oni karim, Hadisi sharif.

THE ATTITUDE OF HOLY ISLAM RELIGION TO TRADITIONS

Abstract. Every nation has its own customs, traditions and rituals. Each of them is fundamentally different from the other. One is beneficial, one is completely harmful. Information is given that one of them may reflect nationalism, the other may promote corruption, etc.

Key words: Custom, Islam, "Tradition", "habit", "ritual", Holy Qur'an, Hadith.

ОТНОШЕНИЕ СВЯТОЙ ИСЛАМСКОЙ РЕЛИГИИ К ТРАДИЦИЯМ

Аннотация. У каждого народа есть свои обычаи, традиции и ритуалы. Каждый из них принципиально отличается от другого. Одно полезно, другое совершенно вредно. Приводится информация, что один из них может отражать национализм, другой – способствовать коррупции и т. д.

Ключевые слова: Обычай, Ислам, «Традиция», «Привычка», «Ритуал», Священный Коран, Хадис.

Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram arafasida keksa, qariyalar, kasal, ojiz, qiyngalgan kishilar holidan xabar olish, qo‘ni-qo‘shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o‘zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. “Odat” degan tushuncha u ma’lum sharoit ta’sirida vujudga kelib, kishining fe’l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o‘z-o‘zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma’nosini bildiradi. An’ana esa ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-

harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatda o‘tadigan, umum qabul qilgan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan, ism qo‘yish, nikohdan o‘tish, dafn qilish, xotirlash, ekin ekishga kirishish (urug‘ qardash), o‘rishga kirishish marosimlaridir. Urf-odat va an’analar kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni tug‘ilish, uylanish, o‘lim kabilarni o‘zida mujassamlashtiradigan umumiyl tushuncha. Marosimlarni o‘tkazishda avloddan-avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy an’analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimda bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g‘ami yoki quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o‘ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (bosqlanishi, o‘rtasi, oxiri) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an’ana ham, odat ham marosim ham mujassamlashadi. Demak, “An’ana”, “odat”, “marosim” bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi. SHu bois an’analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo‘lishi mumkin. Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab chiqarishga borib ish bosqlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqealarni munosabati bilan an’anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi – yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o‘zo‘zidan marosimga aylanadi. Ba’zi xolatlarda “an’ana”, “odat” va “marosim” tushunchalari alohida ishlatsa, ular mavhum ma’noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘shilib, masalan, “an’anaviy bayram”, “an’anaviy festival”, “an’anaviy kecha” yoki “mukofotlash marosimi”, “to‘y marosimi”, “nafaqaga kuzatish marosimi” tarzida qo‘llaniladi.

“Marosim” so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma’nosini bildiradi. Oilaviy urf-odatlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. SHu tufayli u oilalar o‘zgarishi bilan birlgilikda u ham o‘zgargan, rivoj topgan.

Taraqqiyot, zamon talabiga javob bergan urf-odat yanada kuchayib zamonga qarab rivojlanib bormoqda. O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig‘irilqaridan o‘tib, muhim ma’naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Urf-odatlarimizga aylanib qolgan chaqaloqni beshikka solish kabi urflarimiz mavjud. Bu beshik to‘yi mavzusini batafsilroq yoritar ekanmiz, beshik to‘yi qadim zamonlardan har bir oilada o‘tkazilib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. “Yangi urf-odat va an’analar” hayotimizga yanada ravonlik olib kiradi. XX asrning ikkinchi yarmida, zamon o‘zgarishi bilan keyingi davrda hayotimizga tug‘ilgan chaqaloqlarning ota-onalariga guvohnoma yoki voyaga etgan yoshlarga pasport topshirish, o‘quv yurti bitiruvchilariga tantanali

ravishda diplom va shahodatnomalarini topshirish va ularni mehnat jamoasiga qabul qilish, tantanali nafaqaga kuzatish tadbirlari kabilar kirib kelgan edi. Hozirga kelib, ular “an’anaviy tadbir” urf-odatlarimizga aylanib bormoqda.

Islom dinining har qanday zamon va makonning muammolarini hayotiy hal qiluvchi qonun-qoidalari urf-odat va an’analarga ham o‘z munosabatini aniq bayon qilgan. Jumladan, urfn qabul qilinishi uchun quyidagi shartlarni qo‘ygan:

Qur’oni karimda ochiq-oydin ta’qiqlangan yoki halol qilingan ishlardan birortasini halol yoki harom qiluvchi odat bo‘lmasligi;

1. Hadisi sharifda ochiq-oydin halol yo haromligi bayon qilingan hukmlariga zid bo‘lmasligi;

2. Har qanday urf-odat va an’analar faqihlarning ijmo’i ya’ni Qur’oni karim va sunnati mutahhara mazmunidan kelib chiqib, umumxalqqa manfaat keltirishga asoslangan ittifoqlariga zid bo‘lmasligi.

3. Bid’at-xurofot ishlarga targ‘ib qiluvchi bo‘lmasligi zarur;

4. Fahsh va “ommaviy madaniyat”ga targ‘ib qiluvchi ish bo‘lmasligi;

5. Uning shariatdagи birorta asosga tayanishi...

Urf-odatlarni qabul qilish borada hanafiy mazhabi vakillari ancha keng yo‘l tutganlar va hatto bid’at (Payg‘ambarimiz sollallohu alahi va sallamning davlarida bo‘limgan, U zotning vafotlaridang so‘ng paydo bo‘lib, diniy tus olgan ish)ni ham ikkiga bo‘lganlar. Payg‘ambarimiz vafotidan so‘ng paydo bo‘lgan har qanday ish bid’at- xurofot, yomon, gunoh va harom ish hisoblanvermaydi, balki, ularning asl mohiyati, maqsad-g‘oyasiga qarab, so‘ng uning o‘ziga mos munosabat bildiriladi, degan mulohazani ilgari suradilar. Bu fikrlarini isbotlab berish uchun “bid’at” ni ham ikki qismga bo‘lishadi:

1. “Bid’ati hasana” ya’ni “YAxshi va savobli ish bo‘lgan bid’at”;

2. “Bid’ati sayyia” ya’ni “Yomon va gunoh ish bo‘lgan bid’at”larga taqsimlashgan.

Bunga Payg‘ambarimizdan rivoyat qilingan quyidagi aytilajak ma’nodagi hadisi sharifni dalil qilib keltirishganlar: **“Kimda kim biror yaxshi sunnat (urf-odat)ni joriy qilsa, u o’sha ishning savobini oladi va qolaversa, qiyomatgacha shu ishni qilgan odamlarning savobidek unga ham ajr-savob borib turadi. Bu (birinchi boshlagan) kishiga berilgan savob hisobiga, keyingi qilayotgan kishilarning savobi ozayib qolmaydi. Balki, Alloh taoloning O‘zi har ikkisiga ham alohida-alohida savob beradi. Kimda-kim biror yomon ishni sunnat (urf-odat)ni joriy qilsa, unga o’sha ishning gunohi va qiyomatgacha shu amalni qiluvchi kimsalarning gunohlaridek gunoh borib turadi. Bu kishiga boradigan gunoh evaziga hozirda shu gunoh ishni qilgan kimsalarning gunohi kamayib qolmas. Balki, Alloh taolo**

hammalariga alohida-alohida gunoh yozadi”. Mazkur muborak hadisi sharifdagi “Sunnat” so‘zi aynan o‘zbek tilidagi “urf-odat” ma’nosida kelgandir. Demak, har qanday urf-odat ham yomon bo‘lavermas ekan. Balki, uning mazmun-mohiyati, natijasi e’tiboridan yaxshi va yomonga bo‘lish maqsadga muvofiq ekan.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib, quyidagilarni aytishimiz mumkin: muqaddas Islom ta’limoti diniy va milliy qadriyatlarimizga zid bo‘limgan, jismoniy va ma’naviy zarar keltirmaydigan, umummanfaatli, “ommaviy madaniyat” ga targ‘ib qilmaydigan, jamiyatning taraqqiyotiga to‘siq bo‘lmaydigan, uning kelajagiga rahna solmaydigan har qanday zamona viy urf-odat va an’analarga hech qachon to‘sinqilik qilmaydi.

REFERENCES

1. Абдулазиз Мансур “Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири” Тошкент, 2004.
2. Абдуллоҳ ибн Маҳмуд “ал – Ихтиёр ли Тълил мухтор” Байрут, 1998.
3. Абул Баракот ан – Насафий “Манор ал – Анвор” Истанбул, Ҳанафий матбааси.
4. Али ибр Султон Мұхаммад ал – Қори “Ан – Никоя шархи Мұхтасар ал – Викоя” Император университети босмақонаси, Қозон, 1908.
5. Toshpo’latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
6. Toshpo’latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
7. Toshpo’latova, S., & Jo’rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
8. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
9. Toshpo’latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
10. Toshpo’latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O’RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
11. Toshpo’latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
12. Toshpo’latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.

13. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
14. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
15. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
16. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
17. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
18. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
19. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV- " ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
20. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
21. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
22. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.